

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yo'Idoshev</b>	
Sport faoliyati yo'naliishi talabalariga valeologiya fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning ta'lim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida o'lat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid o'n ikki cho'p va lapar o'yinlari tavsifi va ta'rifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining o'rganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhiy uzviyiligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi .....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xojiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Авазов</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur-iftixon tuyg'usini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamlari texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtaсидagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarov</b>	
O'quvchilar lug'at boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbanova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosobat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarning innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili.....	346
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi .....	351
<b>M.C.Мухамедова</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



УО'К: 316.334.3:303.72

**MILLIY QADRIYATLARNING INNOVATSION TARAQQIYOT TALABLARI ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПОТРЕБНОСТЕЙ  
НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

**DEVELOPMENT BASED ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE NEEDS OF  
NATIONAL VALUES**

Sultonova Latofat Sa'dullayevna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada hozirgi o'zbek tarixa falsafasida kechayotgan sifat va miqdor o'zgarishlari, yangicha falsafit tafakkurning milliy ma'naviyatimizdagi ayrim xususiyatlari haqida fikr yurtilgan. Innovatsion texnologiyalar va uning ma'naviyatimiz rivojiga ijobji ta'siri haqida mulohaza yurililgan.

**Аннотация**

В статье рассматриваются качественные и количественные изменения в современной узбекской философии истории, некоторые особенности нового философского мышления в нашей национальной духовности. Обсуждались инновационные технологии и их положительное влияние на развитие нашей духовности.

**Abstract**

The article discusses qualitative and quantitative changes in modern Uzbek philosophy of history, some features of new philosophical thinking in our national spirituality. Innovative technologies and their positive impact on the development of our spirituality were discussed.

**Kalit so'zlar:** Vatan, yoshlar, milliy-mafkuriy tarbiya, g'oya va mafkura, sabr-qanoat, ommaviy madaniyat, ijtimoiy-gumanitar fanlar, vatanparvarlik, jahon hamjamiyati, barqaror taraqqiyot, milliy madaniyat.

**Ключевые слова:** Родина, молодежь, национально-идеологическое воспитание, идея и идеология, терпение-удовлетворение, массовая культура, социально-гуманистические науки, патриотизм, мировое сообщество, устойчивое развитие, национальная культура.

**Key words:** Motherland, youth, national-ideological education, idea and ideology, patience-satisfaction, mass culture, social-humanities, patriotism, world community, sustainable development, national culture.

**KIRISH**

XXI asr ilm-fan, texnika taraqqiyotida misli ko'rilmagan yutuqlarga voris sifatida tarixga kirmoqda. Murakkab zamonaviy texnologiyalar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalarning barcha unsurlarini egallab oldi va faol ta'sir ko'satmoqda. Inson tafakkuri darajasi ko'zga ko'rinas mikroolamlardan ilgari tasavvur va idrok kuchi yetmaydigan makroolamlarni mushohada etmoqda, ularni o'z ehtiyojlariga bo'yundirishga, o'z manfaatlari yo'lida ko'proq foydalanishga, tabiat va jamiyat qonunlarini isloh etishga urinmoqda.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Innovatsiya adabiy jarayonga ham faol ta'sir ko'satmoqda. Kitob targ'iboti va kitob mutolaasi yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida: “Har bir oliy ta'lif muassasasi jahoning etakchi ilmiy-ta'lif muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lif muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni

## ILMIY AXBOROT

faol jalb qilish" ta'kidlanib, muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi milliy va ma'nnaviy-ma'rifiy taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi, bu tub vazifalarning bosh harakatlantiruvchi kuchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyatga tadbiq etishdan iborat. Bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, innovatsion texnologiyasini qabul qilishimiz kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilandi

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyatga tadbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobji yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi. Pedagogik innovatsiya-bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir. Bunday tizimning maqsadi deganda, ta'limning mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya tizimi sifat ko'satkichlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq. O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'satmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzlusiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'satadi. Ushbu muammolarning jiddiyligi shubhasizdir-muntazam o'tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta'lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga etarli tayyor bo'lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta'limga, shaxsga va o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga etarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda.

Innovatsiya milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yot, zo'ravonlik, axloqsizlikni targ'ib etuvchi g'ayriinsoniy harakatlarga ham keng yo'l ochib berdi. Shunday paytda yuksak ma'nnaviy-axloqiy ideallarni targ'ib etuvchi badiiy yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlarning ko'proq yaratilishi, kitobxonlar tomonidan mutolaa qilinishi juda muhim.

Milliy ma'nnaviyatimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shuurlarga singdiradigan, yomonni yaxshidan, hayosizni hayolidan, yovuzlikni shafqatllikdan ajratib ko'satadigan, inson dilida eng ezgu hislarni tarbiyalaydigan buyuk vositadir. Shunday qadriyatlarimiz borki, uni boshqa ko'pgina millatlar va dinlarning ma'nnaviy-axloqiy mezonlarida ko'rmaymiz. Ammo butun insoniyat uchun zarur bo'lgan, foydali va milliy qadriyatlarimizga hamohang tuyg'ular, tushunchalar, asrlar davomida sayqal topgan axloqiy mezonlar biz uchun hamisha qadrlidir. Atoqli olim I.G'aurov shunday yozadi:

"Islom yaratgan ulug' ilohiy Kitob ota-onangning betiga qarab uf tortma, uh dema, ular seni kichiklikdan tarbiyat qildilar, dunyoga keltirdilar. Sening uf tortishing ularni adoyi tamom qiladi. Biz bolamizga qanoatli hayot berolmabmizda, deb o'kintiradi, deydi. Mana shu ota-ona yuziga tik qarab uf tortish-hayosizlik, uf tortmaslik, ichingdan qirindi o'tayotgan holda ham buni bildirmaslik, bu-hayo.

Uzum gullaganini ko'rganmisiz? Ilk hayo ana shu uzumning guli. U hali shirin uzum emas, lekin usiz shirin uzum hech qachon yetilmaydi. Mard odamning mardligi ham, qahramon odamning qahramonligida ham shunday hayo guli mavjud. Hayo bo'lmasa, botirlik bo'lmaydi[3,350]".

Hayolilik bizning yuksak milliy axloqiy qadriyatimiz. U umuminsoniy xarakterga ham ega. Hayo ustuvor ekan, dunyo sobit turadi, yovuzliklar, xunrezliklar yo'liga to'siq qo'yiladi, odam odamga shafqatli, qayg'udosh bo'ladi, millatlar millatlarga hamfikr, hammaslik bo'ladi. I.G'aurov bu fikrning naqadar to'g'riligini ulug' ingliz dramaturgi V.Shekspirning "Qirol Lir" fojeasidagi

Kordeliyaning hayoliligi bilan isbotlaydi. "Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q", degan ajoyib o'zbek maqoli bor. Fojeada ko'rsatib berilgan voqeada ana shu maqolning mazmun-mohiyati ifodalab berilgan. Qirol Lir qizi Kordeliyani tahqirlaydi, bor mol-mulkini katta qizlariiga berib, uni hamma narsadan mahrum etadi. Holbuki, u ota-onasini chin farzandlik muhabbat bilan sevadi, ammo uni ifodalab berolmaydi. Bunga uning hayoli ekanligi yo'l bermaydi. Qirol og'ir ahvolda qolganida yana uning dardiga tahqirlangan Kordeliya malham bo'ladi. Ota-onasi va farzand o'tasidagi munosabatlarda axloqiy va me'yoriy mezonlarning Shekspir fojeasidagi badiiy talqini bizning milliy qadriyatlarimizga naqadar mos kelishi har qanday kishini hayajonga soladi.

O'zbek tarixida umuminsoniy qadriyatlar ulug'langan, yuksak darajada badiiy ifodasini topgan asarlar fransuz, nemis, ingliz va boshqa millat kitobxonlarini ham o'ziga rom eta oladi va qiziqish bilan o'qiladi. Shunday asarlar keyingi yillarda ko'payib borayotgani quvonarli hol, albatta. Taniqli olim G. Markes singari buyuk so'z ustalari badiiy yo'llariga, ong oqimi, ekzistensializm, magik realizm, shuningdek, minnipiya shakli tajribalariga, ular kashf etgan shaxsnинг o'ta chigal, sirli-sehrli murakkab ruhiy olami, inson tabiatini va qalbining yangicha tahlil va badiiy talqini usullariga tayanib ba'zi muvaffaqiyatlarga erishayotgan ekanlar, bundan faqat quvonish mumkin"<sup>[3,21]</sup>, degan xulosasini taqdim etadi.

A.Yo'Idoshning "Yulduzning yo'li"<sup>[4]</sup> qissasida vogelikni yangicha badiiy talqini, shaxs obrazini yaratishda uning ichki olamiga chuqur kirib borish va uni ichki ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar girdobida ko'rsatish, shaxs fojeasining ma'naviy ildizlarini ko'rsatib berishga harakat bo'rtib turadi. Yulduz qo'shiqchi bo'lishga ahd qilgan Sadriddinning fojeasi kitobxonni achintiradi, ammo bunga uning ma'naviy olami qashshoqligi sabab bo'lganligi kishini hushyor tortiradi. Nafisaning fojeasi, uning tirikchilik o'tkazishga majburligidan ichkilikka ruju qo'yishi, qo'lidan kelsa kelmasa raqqosa bo'lishga intilishi bu ma'naviy qashshoqlik sabablarini yanada chuqur ochib berishga xizmat qilgan.

Luqmon Bo'rixonning "Chorbog' qo'riqchisi yoxud Xizr ko'rgan yigit", "Sirli muallim", "Qidiruvdag'i qiz" qissalari, qator hikoyalariada ham vogelikning yangicha badiiy talqini kitobxonning badiiy estetik didi o'sishiga xizmat qiladigan asarlar sirasiga kiradi. "Bekatdagi qiz"<sup>[5,21]</sup> hikoyasi syujeti juda oddiy. Bir zavodda ishlaydigan ishchi Zamonalishdan qaytayotganida avtobusga tasodifan chiqib qolgan qizga e'tiborini qaratadi va uning go'zalligiga mahliyo bo'lib qoladi. Qalbida uyg'ongan bu tuyg'u uni butunlay boshqa odamga aylantiradi. Qiz avtobusdan tushib ketgach, uning ortidan tushishga harakat qilib, eshikka qisilib qolgani, uning o'lib qolishidan qo'rqqan haydovchining jerkishi, so'kishini, odamlarning har xil achchiq-tiziq gaplariga ham parvo qilmaydi, qiz qalbida uyg'otgan go'zallik sehri uni mast qilib qo'yadi. U butunlay boshqa odamga aylanadi.

### XULOSA

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon ezgulik, yaxshilik, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat yashab keladi, yovuzlik, razilik, zulm va zo'ravonlikka qarshi kurash olib boriladi. Bu qarama-qarshi tushunchalar o'tasida kechgan kurashda jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga ega yashash qoidalari, turmush tarzining tartib va mezonlari, urf-odat hamda an'analar shakllandi va rivojlandi. Milliy qadriyatlarimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasini boyitayotgani, milliy ma'naviy boyliklarimiz butun insoniyatga xizmat qilayotganini e'tirof etishimiz lozim. Vatanparvarlik-umuminsoniy qadriyat. Innovatsion texnologiyalar asrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar badiiy talqini yangi imkoniyatlarga, qudratli vositalarga ega bo'lib, inson ruhiga, ma'naviy-axloqiy yuksalishiga, bo'lajak fojealarga hushyorlik bilan qarashiga kuchliroq ta'sir etmoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 14 сентябрь.
2. Faufurov Ibrohim, Xаё халоскор, "Мангу латофат", Бадиалар, рисолалар, 2-китоб, "ШАРҚ" нашриёт-матбаба акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2008 й. Б.350.
3. Норматов У., Янги ўзбек адабиёти, ўкув қўлланма, Тошкент, "Университет" нашриёти, 2007 й. Б.21.
4. www.ziyouz.com кутубхонаси.
5. Бўрихон Луқмон, Бекатдаги қиз, ҳикоя, "Хизр кўрган йигит", Қиссалар ва ҳикоялар, "ШАРҚ" нашриёт-матбаба акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2007 й. 247(манба: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси)